

MUQIMIY IJODIY MERO SINING IQTISODIY AHAMIYATI

Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi

TDIU

xonshams@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o‘zbek demokratik adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo‘lmish Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning ijodiy merosini o‘rganishga qaratilgan. Shuningdek, uning bir qancha asarlari tahlil qilingan va Muqimiyning ilmiy-badiiy merosini puxta o‘rgangan bir qancha adabiyotshunoslarning fikrlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Muqimiy, asarlari, demokratik yo‘nalish, muxammas, g‘azal, murabba, aruz.

Kirish

Serqirra ijodkorlardan biri bo‘lmish Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy 19-20-asrlarda insoniyatning ongini oshirish va jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga o‘zining kata hissasini qo‘sghan shoirlardan biridir. Ayniqsa, bu davrda Qo‘qon adabiy muhiti alohida o‘ringa ega bo‘lgan va bu davrni biz Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Xaziniy kabi adiblarsiz tasavvur qila olmaymiz. Muqimiyning hayot yo‘liga nazar solsak, u juda oddiy va sodda, faqirlikda hayot kechirgan bo‘lsada, ma’naviy jihatdan juda ham boy edi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Muqimiyning adabiyotga qiziqishi yoshlik cho‘gidanoq boshlangan va bunga uning onasi sababchi bo‘lgan.

Moddiy muhtojlik tufayli uning oilasi buzilgach, butun umrini ijodga, she’riyatga bag‘ishladi. Muqimiyning har bir ijod namunasi o‘z-o‘zidan paydo bo‘limgan, ya’ni u yashab o‘tgan davrda yurtimiz chor mustanlakasida edi va bu holat jamiyatning siyosiy- ijtimoiy hayotiga o‘zini salbiy ta’sirini o‘tkazmay qolmadidi. Naijada esa, insoniyat o‘z dinidan, urf-odatlaridan tobora uzoqlashib, jamiyatdaadolatsizlik, munofiqlik, poraxo‘rlik, oddiy aholiga zulm o‘tkazish kabi illatlar avj oldi. Aynan shuning uchun ham , oddiy bir kambag‘alni gapini hech kim eshitmadidi va shu bilan Muqimiy ijod qilishga ahd qildi.

Adabiyotlar tahlili

Bir qancha adabiyotshunos olimlar Muqimiyning hayoti va ijodiy merosini o‘rganib tadqiq qilishgan. Bundan tashqari, Muqimiyning bir nechta asarlarini to‘plab nashr ettirishgan va Muqimiyga bag‘ishlab maqola, risola, bayoz hamda monografiyalar yozishgan va tahlil qilishgan.

Uning har bir yaratgan ijodiy merosiga nazar solsak, atrofda bo‘layotgan hodisalarga jimgina qarab tura olmay ularni tanqidiy yo‘l bilan jonlantirishga uringaniga, aholining dod- voylarini , faryodlarini gavdalantirganligini , Mansabdor shaxslarning qay darajadaadolatsiz siyosat olib borayotganligini ko‘rsatgan .

Birinchi bo‘lin Ostroumov “ Devon Muqimiy” to‘plamini 1907- yilda nashr qilgan va 1912- yillarda “ devoni Muqimiy maa hajviyot” nomli asarlar to‘plami bosib chiqarilgan.

G‘afur Gulom “ Muqimiy bayozi”ni tayyorlab 1938-yilda nashr qildirgan . Bundan tashqari, Hamid Olimjon, Uyg‘un kabi shorilarimiz ham Muqimiyning hayoti va ijodini o‘rgangan holda, bir qancha maqolalr yozishgan.

Taniqli adabiyotshunos G‘ulom Karimov esa Muqimiy hayoti va ijodi haqida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan va 1960 –yilda Muqimiyning 2 tomlik asarini chop ettirgan

Shoir va drammatura Sobir Abdulla ham uning ijodini o‘rganishda o‘zning musosib hissasini qo‘sib “ Muqimiy” nomli musiqali drama yaratdi va “ Mavlono Muqimiy” asarini e’lon qildi.

Umuman olganda Muqimiyning hayot yo‘lini o‘rganish hali hamon to‘xtagani yo‘q. Istiqlol yillariga kelib, adabiy merosimizni xolis o‘rganishga keng imkoniyat yaratildi hatto, Muqimiyning merosini o‘rganishda professor va iqtidorli talabalar uchun “ Muqimiy” nomidagi stipendiya va ko‘krak nishoni ham ta’sis etildi.

Taxlil va natijalar

Shoiring ko‘pgina she’rlarini qo‘sish qilib kuylashgan. Bularga misol qilib , “Muncha ham”, “ Yolg‘uz”, “Kim desun”, “Ayrilmasun”, “Yodimga tushdi” kabi she’rlari fikrimiz na’munalaridir. Uning “Bachchag‘ar”, “Loy”, “Tanobchilar”, “Avliyo”, “Pashshalar”, “Hajvi Viktor”, “Bezgak” kabi humoristik she’rlari hamda o‘zbek adabiyotida yangilik bo‘lgan “Sayohatnama “ asari ham shoir ijodini naqadar yuksakligiga guvoh beradi.

Muqimiyning birgina “Tanobchilar” she’ri ham Qo‘qondagi qurilishda ishlab yurgan kezlarida o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan holatni tasvirlaydi va hajviyot ila buni yanada ochib bergen. Bu uning eng mashhur satiralaridan biri hisoblanadi.

Bo‘ldi taajjub qiziq hangomalar,

Arz etayin emdi yozib nomalar.

Adl qulog‘ila eshit holimi ,

Zulm qilur baski, menga zolimi.

Adibning, bu hikoyasida amaldorlarning zug‘miga duch kelgan dehqonlarning faryodlari va o‘sha davrning ijtimoiy- iqtisodiy hayoti tasvirlangan.

Sulton Ali Xo‘ja, Hkimjon ikav,

Biri xotun, birisi bo‘ldi kuyav.
Ikkalasi bo‘ldi chunon ittifoq ,
Go‘yo xayol aylaki, qilmay nifoq.

Bu satrlardan boshlab esa ma shu ikki amaldorlarning har o‘n ikki oyda kelib aql bovar qilmaydigan darajada ,aholini qiynab tanob yi‘g‘ib ketishlariadolatsizliklari tasvirlangan. Bu ikkiyuzlamachi amaldorlar o‘z manfaatlari yo‘lida xalqdan foydalanganlar hamda jirkanch maqsadlariga erishish uchun hech narsadan qaytmaganlar. Kezi kelganda dushman , ishlari tushganda esa bir birlariga aka-ukadan ham yaqindeklar go‘yo. Bundab tashqari, bu ikki kishining juda naqtanchoq, ezma shaxs sifatida gavdalantirgan va buning natijsida xalq qay darajada qiynganganligi namoyon qilingan.

“Maskovchi boy” satirasiga kelsak, bu tasvirda shoir tarixiy realikka ega bo‘lgan mavzuni tanqidiy ruhda ochib bergan. Ya’ni o‘sha davrda boylardan bo‘lgan rus kaoitalistlari va banklardan juda kata miqdorlarda kredit olgan holda, o‘z ishlarini , mubolag‘a qilib aytganda o‘z zavod-fabrikalarini yuritganlar. Shakllangan burjuaziya rus kapitalistlari bilan raqobatga kirardi va ko‘pincha kapitalistlar yengilardilar. Mana shu hodisalar Hodixo‘ja Eshon misolida tasvirlangan. Quyidahi misralar ila boshlangan.

Hikoyat qilay, turfa davron ekan,
Xaloyiq hama mavhu hayron ekan,
Chiqib yangi maskovchidin boylar,
Sinar o‘tnayin bazisi oylar.
Xususanki, eshoni Hodixo‘jam.

Xulosa

Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning zabardast shoirligi shundaki, uning ijodi real voqealarga asoslangan, xalqchil va endigina paydo bo‘layotgan katta ijtimoiy kuchni ko‘ra olgan va mohiyatini tushungan. Qisqacha aytganda, ishchilar sinfi va uningevolyutsiyasi , qolaversa asarlarida tanqidiy, hajviyot yo‘li bilan muammoning nafaqat ijtimoiy , balki iqtisodiy tomonlarini ham ko‘rsatib bera olgan va ana shu kichik ammo, dolzarb bo‘lgan bir epizodi bilan o‘zbek adabiyoti tarixida birinchi qadamni qo‘ydi. Hatto, uning ijodiy merosida tanqid ostiga olgan iqtisodiy muammolaribugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi taqsinga loyiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mxmudov N.M , Avazov N.R. “Muqimiyning iqtisodiy qarashlari”. Ilmiy risola. –T. “Iqtisodiyot”, 2021.- 56 bet.
2. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.
3. Muqimiy she’riyati matnida “g’oyaviy tahrir” masalasi // Oltin bitiklar.- Toshkent,2018. – No 1. – 88-97.